

C.TX

Soliq solishning o'ziga xos jihatlari

2025-yilda imtihonga tayyorgarlik uchun
o'quv-uslubiy qo'llanma
(«Soliqlar va soliq solish» fanining
2-darajasi)



C.TX

Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари

2025 йилда имтиҳонга тайёргарлик учун
ўқув-услубий қўлланма
(«Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг
2 даражаси)



C.TX

Soliq solishning o'ziga xos jihatlari

2025-yilda imtihonga tayyorgarlik
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma
(«Soliqlar va soliq solish» fanining 2-darajasi)



Mundarija

I. Umumiy qoidalar.....	2
II. Dasturning maqsadi	6
III. Dastur bo'limlari va mavzulari	7
IV. Imtihon formati.....	9
V. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari	10
VI. Baholanayotgan bilim va ko'nikmalar mavzulari bo'yicha huquqiy hujjatlar	15

I. Umumiy qoidalar

O'zbekiston sertifikatlangan moliya mutaxassislari uyushmasi («ACFP») «Soliqlar va soliq solish» fani bo'yicha imtihonga tayyorgarlik dasturini ishlab chiqdi.

Soliqlar va soliq solish bo'yicha bilim va ko'nikmalar moliya mutaxassisiga quyidagilar uchun zarur:

- yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq normalariga muvofiq soliq solish;
- imtiyoz va preferensiyalardan foydalangan holda soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini qonuniy yo'l bilan maqbullashtirish;
- jarimalar va yuridik muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan xatolar va huquqbuzarliklarning oldini olish;
- ish beruvchi yoki buyurtmachiga biznes qarorlarining soliq oqibatlari bo'yicha maslahat berish;
- talab qilinadigan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish orqali soliq organlari bilan samarali hamkorlik qilish;
- soliq organlari bilan nizolarda soliq to'lovchilarning qonuniy moliyaviy manfaatlarini himoya qilish.

Moliya mutaxassisi egallashi lozim bo'lgan soliq mavzulari keng va xilma-xildir. Ba'zi soliqlar murakkab bo'lib, batafsilroq o'rganishni talab qiladi. Shuning uchun «Soliqlar va soliq solish» imtihoni ikki bosqichda o'tkaziladi: avval B.TX Soliq solish asoslari imtihoni, keyin – C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari. Bu nomzodlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- soliq solishning nazariy va amaliy jihatlari o'zlashtirish uchun yetarli vaqt va kuch ajratish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solishni batafsil o'rganish;
- bilim va ko'nikmalarni amaliyotda ishonchliroq qo'llash.

«Soliqlar va soliq solish» fani bo'yicha imtihonlar quyidagilar doirasida topshiriladi:

- «Moliya va biznesni boshqarish» diplomi uchun ACCA (Association of Chartered Certified Accountants) va ACFPning qo'shma imtihonlar sxemalari (JES) ;
- DiPNUz soliqlar va huquq bo'yicha diplom uchun ACFP professional malakasi.

«Moliya va biznesni boshqarish» va DiPNUz diplomlari uchun imtihonlar tuzilmasi


«Moliya va biznesni boshqarish» diplomini olish uchun nomzod ACFPda «Soliqlar va soliq solish» va «Moliya mutaxassisi uchun huquq» imtihonlaridan tashqari, quyidagi ACCA imtihonlarini topshirishi kerak:

- Moliyaviy hisobot (FR)
- Biznes samaradorligini boshqarish (PM).
- Moliyaviy menejment (FM)
- Audit va turdosh xizmatlar (AA)

Shuningdek, kursda o'qishdan o'tish va professional axloq imtihon modulini (PEM(Rus)) topshirish kerak.



«Moliya va biznesni boshqarish» diplomi



Soliqlar va huquq bo'yicha DiPNUz diplomini olish uchun nomzod quyidagi imtihonlarni topshirishi kerak:

- B.LW Huquq asoslari
- C.LW Biznesni boshqarishni huquqiy tartibga solish
- B.TX Soliq solish asoslari
- C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari

ACFP malaka darajalari tizimi

ACFP malakalari to'rtta izchil daraja bo'yicha turkumlangan:

- A darajasi (boshlang'ich)
- B darajasi (bazaviy)
- C darajasi (professional)
- D darajasi (ilg'or)


O'qishni bilim va ko'nikmalingizga muvofiq keladigan darajadan boshlash tavsiya etiladi. A darajasidan boshlash majburiy talab emas. Mos keladigan darajani tanlash joriy malaka va professional tajribani mustaqil baholashga asoslangan bo'lishi kerak.



C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari imtihonining ACFP malaka tizimidagi o'rni

C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari imtihoni moliya mutaxassislari uchun soliqlarni bosqichma-bosqich o'rganishning professional pog'onasi hisoblanadiva quyidagicha topshirilishi mumkin:

- ACCA va ACFP xalqaro «Moliya va biznesni boshqarish» diplomi uchun majburiy imtihon sifatida;
- DiPNUz diplomini olish uchun o'tishi kerak bo'lgan «Soliqlar va soliq solish» fanining ikkinchi pog'onasi sifatida.



O'quv yuklamasi

Umumiy hisobda «Soliqlar va soliq solish» fani bo'yicha ikkita imtihonga tayyorgarlik uchun kamida 480 soat kerak bo'ladi:

	O'quv faoliyati turi	«Soliqlar va soliq solish» fani bo'yicha akademik soatlar soni		
		B.TX Soliq solish asoslari tayyorgarlikning 1-bosqichi	C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari tayyorgarlikning 2-bosqichi	Jami
1	Ma'ruzalarni tinglash	60	60	120
2	Amaliy mashg'ulotlar	40	40	80
3	Mustaqil ish	140	140	280
	Jami	240	240	480

E'tibor bering! C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari 2-bosqich imtihoniga B.TX Soliq solish asoslari 1-bosqich imtihonini topshirgan yoki quyidagilarga ega bo'lgan shaxslar qo'yiladi:

- moliya, hisob yoki audit bo'yicha oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom – OTM o'quv dasturlari ACCAda akkreditatsiyadan o'tkazilganda, yoki
- CAP/CIPA sertifikatlari, yoki
- auditor sertifikati, yoki
- soliq maslahatchisi sertifikati.

ACCA akkreditatsiyasi

B.TX Soliq solish asoslari va C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari imtihonlari dasturi ACCA tomonidan akkreditatsiyalangan. Bu quyidagilarni anglatadi:

- u «Moliya va biznesni boshqarish» xalqaro diplomining Soliqlar va soliq solish (TX) imtihoni dasturiga kamida 80% muvofiq keladi;
- bu imtihon ACFPning ikkita imtihonini (C.TX va B.TX) muvaffaqiyatli topshirganda ACCA tomonidan inobatga olinadi.

E'tibor bering! Bepul ozod qilish uchun C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari imtihonini topshirishdan oldin ACCA saytidagi «Moliya va biznesni boshqarish» diplomi dasturi uchun ro'yxatdan o'tish lozim. buni amalga oshirmasangiz, ozod qilish pulli bo'ladi.

II. Dasturning maqsadi

C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari («Soliqlar va soliq solish» fanining 2-darajasi) imtihoniga tayyorgarlik dasturining maqsadi nomzodlarda soliq menejmenti asoslari, ayrim soliq to'lovchilar va operatsiyalar turlari bo'yicha qo'shilgan qiymat va foydaga soliq solish ko'nikmalari, aksiz to'lanadigan tovarlar, yer qa'ridan foydalanuvchilar, soliq to'lovchilarning ayrim toifalari va transfert narxini shakllantirish bo'yicha tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

Dasturni o'zlashtirish nomzodlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- moliya mutaxassisining axloqiy me'yorlari va professional xulqidan kelib chiqqan holda kompaniyada soliqlarni boshqarishni tushuntirish;
- alohida hollarda qo'shilgan qiymat solig'ini tartibga soluvchi normalarni tushuntirish va qo'llash;
- alohida soliq to'lovchilarda va alohida operatsiyalar bo'yicha foyda solig'ini tartibga soluvchi normalarni tushuntirish va qo'llash;
- aksiz solig'ini tushuntirish va hisoblab chiqarish;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlarni tartibga soluvchi normalarni tushuntirish va qo'llash;
- transfert narxni belgilashda soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish;
- chet el kapitali ishtirokidagi kompaniyalarga, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga, advokatlarga va advokatlik tuzilmalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga soluvchi normalarni tushuntirish va qo'llash,.

III. Dastur bo'limlari va mavzulari

«Soliq solishning o'ziga xos jihatlari» imtihoni dasturi quyidagi bo'lim va mavzularni o'z ichiga oladi:

1-bo'lim. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning o'ziga xos jihatlari

- 1.1. Alohida hollarda QQS bo'yicha soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari
- 1.2. Nol darajali stavka bo'yicha QQS solinadigan aylanmalar
- 1.3. Ayrim hollarda QQSni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari
- 1.4. QQSni qaytarishning tezlashtirilgan tartibi

2-bo'lim. Foyda solig'ini undirishning o'ziga xos jihatlari

- 2.1. Alohida vaziyatlarda jami daromadni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 2.2. Alohida vaziyatlarda foyda solig'ini hisob-kitob qilishda xarajatlarni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 2.3. Alohida to'lovchilar va operatsiyalar bo'yicha soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari
- 2.4. Alohida vaziyatlarda zararlarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari
- 2.5. O'zbekistondan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari
- 2.6. Faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi norezidentlarning daromadlariga soliq solish

3-bo'lim. Aksiz solig'i

- 3.1. Aksiz solig'i to'lovchilar
- 3.2. Aksiz solig'ini hisob-kitob qilish
- 3.3. Hisobotlarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

4-bo'lim. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar

- 4.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- 4.2. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i

5-bo'lim. Transfert narxni belgilashda soliq solish

- 5.1. Transfert narxni belgilash to'g'risidagi umumiy qoidalar
- 5.2. O'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi nazorat qilinadigan bitimlar
- 5.3. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratini o'tkazish
- 5.4. Soliq solish maqsadida narxni belgilash to'g'risidagi bitim

6-bo'lim. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

- 6.1. Chet el kapitali ishtirokidagi kompaniyalarga soliq solish
- 6.2. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga soliq solish
- 6.3. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solish

7-bo'lim. Kompaniya soliqlarini boshqarish

- 7.1. Soliq menejmenti asoslari
 - 7.2. Korporativ soliqlarni rejalashtirish
 - 7.3. Kompaniyada soliqlarni byudjetlashtirish
 - 7.4. Soliq komplayensi asoslari
 - 7.5. Buxgalterning soliq solishga nisbatan axloqi va professional xulqi
-

IV. Imtihon formati

C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari («Soliqlar va soliq solish» fanining 2-darajasi) fani bo'yicha imtihon kompyuterda o'tkaziladi. Imtihon davomiyligi – 3 soat. Imtihonda talabgorlar O'zbekiston qonunchiligi ma'lumotlar bazasidan foydalanishga haqli.

Imtihon ikki bo'limdan iborat. A bo'limi test formatidagi 15 ta savolni o'z ichiga oladi, ularning har biri bir xil vaznga ega (2 ball). A bo'limining umumiy vazni 30 ballni tashkil etadi.

Imtihonning V bo'limi har biri 10 balldan iborat 4 ta ssenariyni, shuningdek, har biri 15 balldan iborat 2 ta ssenariyni o'z ichiga oladi. V bo'limining umumiy vazni 70 ballni tashkil etadi.

Har biri 15 balldan iborat ikkita ssenariyda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va foyda solig'i masalalari e'tibor markazida bo'ladi. A bo'limining savollari va V bo'limining qolgan savollari o'quv rejasidagi boshqa har qanday fanlarga taalluqli bo'lishi mumkin.

Nomzod olishi mumkin bo'lgan eng yuqori ball – 100 ball. O'tish balli – 100 balldan 60 ball.

E'tibor bering! Odatda, joriy yilgi testlar va imtihon topshiriqlari imtihon yilidan oldingi yilning 1 dekabrigacha rasman kuchga kirgan normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Masalan, 2025 yil noyabrdagi imtihonlar 2025 yil 1 yanvargacha qabul qilingan hujjatlarga asoslanadi. Bu qoidadan istisno holatlarda qo'llaniladigan huquqiy hujjat tahriri alohida ko'rsatiladi.

V. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari

1-bo'lim. Qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) undirishning o'ziga xos jihatlari

1.1-mavzu. Alohida hollarda QQS bo'yicha soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) korxonani mulkiy majmua sifatida realizatsiya qilishda, muddatli bitimlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda QQS bo'yicha soliq bazasini hisoblab chiqarish;
- V) birgalikdagi faoliyat, ishonchli boshqaruv va konsessiya shartnomasi doirasidagi operatsiyalarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish;
- S) qayta tashkil etishda soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.

1.2-mavzu. Nol darajali stavka bo'yicha QQS solinadigan aylanmalar

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) eksport va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni farqlash, tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlarni sanab o'tish;
- V) O'zbekiston bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash xizmatlari bo'yicha nol darajali stavkani qo'llash;
- C) xalqaro tashishlar bilan bog'liq xizmatlarni farqlash;
- D) xorijiy diplomatik vakolatxonalar tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) sotib olishda, shuningdek, Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyat doirasida nol darajali stavkani to'g'ri qo'llash.

1.3-mavzu. Alohida hollarda QQSni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) eksport qilishda hisobga olish tartibini tushuntirish.

1.4-mavzu. QQSni qaytarishning tezlashtirilgan tartibi

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) QQSni qoplashning tezlashtirilgan tartibini tushuntirish.

2-bo'lim. Foyda solig'ini undirishning o'ziga xos jihatlari

2.1-mavzu. Alohida vaziyatlarda jami daromadni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadni tan olishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.

2.2-mavzu. Alohida vaziyatlarda foyda solig'ini hisob-kitob qilishda xarajatlarni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) kafolatli ta'mirlash va kafolatli xizmat ko'rsatish bo'yicha kelgusi xarajatlar uchun rezervni shakllantirish xarajatlarning soliq hisobining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish.

2.3-mavzu. Ayrim to'lovchilar va operatsiyalar bo'yicha soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) notijorat tashkilotlariga, ishonchli boshqaruvda, oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilariga, soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchilariga, nazorat qilinadigan chet el kompaniyalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish;

V) korxonani mulkiy majmua sifatida sotib olishda, qimmatli qog'ozlar, muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar, xedjirlash bo'yicha zaxiralarni baholash usulini o'zgartirish natijasiga soliq solish tartibini tushuntirish;

2.4-mavzu. Ayrim vaziyatlarda zararlarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) qayta tashkil etishda va soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda zararlarni kelgusiga o'tkazish qoidalarini tushunish;

V) yuridik shaxsning ustav fondidagi ishtirok etish ulushini realizatsiya qilishdan yoki boshqacha tarzda chiqib ketishidan, korxonani mulkiy majmua sifatida realizatsiya qilishdan, ishonchli boshqaruv shartnomasi bo'yicha, oddiy shirkat shartnomasida (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomada) ishtirok etishdan, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan, muomalada bo'lmagan qimmatli qog'ozlar va muddatli bitimlarning muomalada bo'lmagan moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar bo'yicha ko'rilgan zararlarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini farqlash.

2.5-mavzu. O'zbekistondan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) tovarlar (xizmatlar) eksportidan olingan daromadlar qismida soliqning nol stavkasini qo'llash;

V) O'zbekistondan tashqaridagi manbalardan olingan daromatlardan to'langan soliqni hisobga olish tartibini qo'llash.

2.6-mavzu. Faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi norezidentlarning daromadlariga soliq solish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) soliq solinadigan daromad va chegirib tashlanadigan xarajatlarni aniqlash;

V) soliqni to'lash, hisobotlarni tuzish va topshirish, soliq agenti tomonidan ushlab qolingani soliqni hisobga olish qoidalarini tushuntirish.

3-bo'lim. Aksiz solig'i

3.1-mavzu. Aksiz solig'i to'lovchilar

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) soliq to'lovchilarni aniqlash.

3.2-mavzu. Aksiz solig'ini hisob-kitob qilish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) soliq solish obyektni identifikasiyalash, soliq solish obyekti bo'lmagan operatsiyalarni farqlash, aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlarni sanab o'tish, soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sanani aniqlash;

V) aksiz to'lanadigan tovarlarni mehnatga haq to'lash, dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga ayirboshlash hisobiga berishda, qayta ishlashga berilgan xom ashyodan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishda, shu jumladan import qilishda, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq bazasini aniqlash, soliq bazasiga tuzatishlar kiritish hollarini farqlash;

S) qat'iy belgilangan, advalor va aralash soliq stavkalarini farqlash va qo'llash, soliqni hisoblab chiqarish.

3.3-mavzu. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) soliqni to'lash, hisobot tuzish va topshirish.

4-bo'lim. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar

4.1-mavzu. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) soliq to'lovchilarni aniqlash;

V) soliq solish obyektni identifikasiyalash, o'rtacha tortilgan realizatsiya qilish narxi nima ekanligini tushuntirish, soliq solish obyekti bo'lmagan foydali qazilmalarni qazib olishni farqlash;

S) qazib olingan foydali qazilmalardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanilganda, soliq (hisobot) davrida realizatsiya qilish mavjud bo'lmaganda, qazib olish boshlanganidan buyon realizatsiya qilish mavjud bo'lmaganda, qazib olingan tabiiy gaz va (yoki) neft mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlanganda, ayrim turdagi metallar qazib olinganda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq bazasini hisoblab chiqarish;

D) soliqni hisoblab chiqarish, to'lash, hisobot tuzish va topshirish.

4.2-mavzu. Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

A) soliq to'lovchilarni aniqlash;

V) soliq solish obyektni aniqlash, renta daromadi, renta zarari nima ekanligini tushuntirishva uni so'ndirish tartibi, boshlang'ich xarajatlar, kapital va operatsion xarajatlarni farqlash, renta daromadini aniqlashda hisobga olinmaydigan daromadlar va xarajatlarni tanish;

- S) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qazib oluvchi korxonalar uchun qazib olish faoliyatini boshlashda (ruxsatnoma olishda), birinchi soliq davri yakunlari bo'yicha renta zararini olishda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq bazasini belgilash;
- D) soliqni minimal va oshirilgan stavkalarni hisobga olgan holda hisoblab chiqarish;
- E) soliqni to'lash, hisobot tuzish va topshirish.

5-bo'lim. Transfert narxni belgilashda soliq solish

5.1-mavzu. Transfert narxni belgilash to'g'risidagi umumiy qoidalar

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) transfert narx, transfert narxni belgilash, nazorat qilinadigan bitimlar tushunchalarini izohlash, transfert narxni belgilashda nazorat doirasida DSQ tomonidan tekshiriladigan soliqlarni sanab o'tish;
- V) transfert narxni belgilash, shuningdek tuzatish kiritish natijalari bo'yicha soliqlarni to'lash natijasida soliq bazasiga va (yoki) tegishli soliqlar summasiga tuzatish kiritish tartibini ta'riflash;
- S) narxlarni bozor narxlari deb tan olish tartibini ta'riflash, shu jumladan narxlarni tartibga solishda.

Mavzu 5.2. O'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi nazorat qilinadigan bitimlar

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) bitimni nazorat qilinadigan bitim deb e'tirof etish holatlarini farqlash, qanday tashqi savdo bitimlari nazorat qilinadigan bitimlar deb e'tirof etilishini, bunday bitimlar tuzilganligi to'g'risida soliq organlarini xabardor qilish tartibini tushuntirish;
- V) qaysi shartlarda bitimlar taqqoslanadigan deb tan olinishini tushuntirish, bitimlar shartlarining taqqoslanishini tahlil qilish, bitimlar shartlarining taqqoslanishini tahlil qilish uchun axborotdan foydalanish.

5.3-mavzu. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratini o'tkazish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) transfert narxni belgilashda soliq nazoratiga qanday tayyorgarlik ko'rilishi, soliq organlariga qanday hujjatlar taqdim etilishini tushuntirish;
- V) transfert narxni belgilashda soliq nazorati usullarini tasniflash: taqqoslanadigan bozor narxlari, keyinchalik realizatsiya qilish narxlari, xarajatlar, taqqoslanadigan rentabellik, foydani taqsimlash, shuningdek nazorat qilinadigan bitimlarda soliq solish maqsadida daromadlarni aniqlashda foydalaniladigan rentabellik ko'rsatkichlari;
- S) o'tkazilgan tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish tartibini ta'riflash, transfert narxni belgilashda soliqlarni to'lamaganlik yoki to'liq to'lamaganlik uchun qanday javobgarlik nazarda tutilganligini tushuntirish.

5.4-mavzu. Soliq solish maqsadida narxni belgilash to'g'risidagi bitim

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) narxni belgilash to'g'risidagi bitimning predmeti va uni tuzish maqsadini tushunish, uning taraflari kimlar va u qancha muddatga tuzilishini tushuntirish;
- V) bitimni tuzish, bekor qilish, shuningdek uning bajarilishini tekshirish tartibini tushuntirish.

6-bo'lim. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

6.1-mavzu. Chet el kapitali ishtirokidagi kompaniyalarga soliq solish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) chet el kapitali ishtirokidagi kompaniyalarga soliq solish shartlarini tushuntirish;
- V) soliq imtiyozlarini qo'llash shartlarini, imtiyozlar berilgan muddat tugaganidan keyin faoliyat bir yildan oldin tugatilganda, imtiyozlarni qo'llash shartlariga nomuvofiqlik aniqlanganda imtiyozlarni qo'llash tartibini tushuntirish.

6.2-mavzu. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga soliq solish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) soliq solish shartlarini tushuntirish;
- V) soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini hisoblash tartibini, maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum qilinganda imtiyozlarni qo'llash tartibini, imtiyozlarning amal qilish muddatini uzaytirish shartlarini tushuntirish.

6.3-mavzu. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarning huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatini huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatdan farqlash;
- V) advokatning daromadi (gonorar) bo'yicha soliq bazasini aniqlash va soliqni hisoblab chiqarish.

7-bo'lim. Kompaniya soliqlarini boshqarish

7.1-mavzu. Soliq menejmenti asoslari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) korxonada soliq yukini hisoblab chiqarish;
- B) soliqlarni korporativ boshqarishning maqsad va vazifalarini tushuntirish;
- C) soliqlarni boshqarish va soliq to'lashdan bo'yin tovlash o'rtasidagi farqlarni aniqlash;
- D) kompaniya moliyasini boshqarish tizimida soliq menejmentining o'rnini tushuntirish.

7.2-mavzu. Korporativ soliqlarni rejalashtirish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) soliqlarni rejalashtirishning mohiyatini tushuntirish;
- B) soliq to'lovchining halolligi tushunchasi va uning huquqni suiiste'mol qilish bilan bog'liqligini tushunish;
- C) soliq nafi tushunchasini tushuntirish, asoslangan va asoslanmagan soliq imtiyozlari o'rtasidagi farqni aniqlash, soliq ajratmalarini maqbullashtirishning ahamiyati va uning soliq solishdan bo'yin tovlash va uni chetlab o'tishdan farqini tushuntirish;

D) PCRT soliqlarni rejalashtirish standartlarini ta'riflash.

7.3-mavzu. Kompaniyada soliqlarni byudjetlashtirish

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) korxonaning soliq byudjetini tushuntirish va tuzish;
- B) byudjetlashtirish tamoyillarini qo'llash;
- C) byudjetlashtirish bosqichlarini sanab o'tish va ta'riflash;
- D) soliq to'lovlari kalendarini tuzish.

7.4-mavzu. Soliq komplayensi asoslari

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) soliq komplayensi tushunchasi va shakllarini tushuntirish;
- B) soliq xavfining asosiy omillarini aniqlash va tushuntirish;
- C) kompaniya faoliyatida asosiy potensial soliq xavflarini aniqlash;
- D) kompaniyaning asosiy soliq xavflarini minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni bilish.

7.5-mavzu. Soliq solishga nisbatan buxgalterning axloqi va professional xulqi

Mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talabalar quyidagilarni bajara olishlari kerak:

- A) «Soliq solishga nisbatan professional xulq» (PCRT) hujjatining asosiy talablarini ta'riflash;
- B) soliq solish jarayonida professional buxgalterning axloqiy xulqining asosiy tamoyillarini tushuntirish;
- C) pul «yuvish»ga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik talablarini ta'riflash va ularga rioya qilish.

VI. Baholanayotgan bilim va ko'nikmalar mavzulari bo'yicha huquqiy hujjatlar

«Soliq solishning o'ziga xos jihatlari» («Soliqlar va soliq solish» fanining 2-darajasi) imtihoniga tayyorgarlik ko'rishda quyidagi huquqiy hujjatlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, bundan VII va XIX bo'limlar hamda 71-bob mustasno;
- Soliq solish sohasida professional xulq (Professional Conduct in Relation to Taxation (PCRT)).

С.ТХ

Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари

2025 йилда имтиҳонга тайёргарлик
учун ўқув-услубий қўлланма
(«Солиқлар ва солиқ солиш»
фанининг 2 даражаси)



Мундарижа

I. Умумий қоидалар.....	2
II. Дастурнинг мақсади.....	6
III. Дастур бўлимлари ва мавзулари	7
IV. Имтиҳон формати	9
V. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари	10
VI. Баҳоланаётган билим ва кўникмалар мавзулари бўйича ҳуқуқий ҳужжатлар	16

I. Умумий қоидалар

Ўзбекистон сертификатланган молия мутахассислари уюшмаси («ACFP») «Солиқлар ва солиқ солиш» фани бўйича имтиҳонга тайёргарлик дастурини ишлаб чиқди.

Солиқлар ва солиқ солиш бўйича билим ва кўникмалар молия мутахассисига қуйидагилар учун зарур:

- юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорларга, шунингдек якка тартибдаги тадбиркор бўлмаган жисмоний шахсларнинг даромадларига солиқ нормаларига мувофиқ солиқ солиш;
- имтиёз ва преференциялардан фойдаланган ҳолда солиқ тўловчиларнинг солиқ мажбуриятларини қонуний йўл билан мақбуллаштириш;
- жарималар ва юридик муаммоларга олиб келиши мумкин бўлган хатолар ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш;
- иш берувчи ёки буюртмачига бизнес қарорларининг солиқ оқибатлари бўйича маслаҳат бериш;
- талаб қилинадиган маълумотлар ва ҳужжатларни тақдим этиш орқали солиқ органлари билан самарали ҳамкорлик қилиш;
- солиқ органлари билан низоларда солиқ тўловчиларнинг қонуний молиявий манфаатларини ҳимоя қилиш.

Молия мутахассиси эгаллаши лозим бўлган солиқ мавзулари кенг ва хилма-хилдир. Баъзи солиқлар мураккаб бўлиб, батафсилроқ ўрганишни талаб қилади. Шунинг учун «Солиқлар ва солиқ солиш» имтиҳони икки босқичда ўтказилади: аввал В.ТХ Солиқ солиш асослари имтиҳони, кейин – С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари. Бу номзодларга қуйидаги имкониятларни беради:

- солиқ солишнинг назарий ва амалий жиҳатларини ўзлаштириш учун етарли вақт ва куч ажратиш;
- юридик ва жисмоний шахсларга солиқ солишни батафсил ўрганиш;
- билим ва кўникмаларни амалиётда ишончлироқ қўллаш.

«Солиқлар ва солиқ солиш» фани бўйича имтиҳонлар қуйидагилар доирасида топширилади:

- «Молия ва бизнесни бошқариш» дипломи учун ACCA (Association of Chartered Certified Accountants) ва ACFPнинг қўшма имтиҳонлар схемалари (JES) ;
- DiPNUz солиқлар ва ҳуқуқ бўйича диплом учун ACFP профессионал малакаси.

«Молия ва бизнесни бошқариш» ва DiPNUz дипломлари учун имтиҳонлар тузилмаси


«Молия ва бизнесни бошқариш» дипломини олиш учун номзод ACFPда «Солиқлар ва солиқ солиш» ва «Молия мутахассиси учун ҳуқуқ» имтиҳонларидан ташқари, қуйидаги ACCA имтиҳонларини топшириши керак:

- Молиявий ҳисобот (FR)
- Бизнес самарадорлигини бошқариш (PM).
- Молиявий менежмент (FM)
- Аудит ва турдош хизматлар (AA)

Шунингдек, курсда ўқишдан ўтиш ва профессионал ахлоқ имтиҳон модулини (PEM(Rus)) топшириш керак.



«Молия ва бизнесни бошқариш» дипломи



Солиқлар ва ҳуқуқ бўйича DiPNUz дипломини олиш учун номзод қуйидаги имтиҳонларни топшириши керак:

- B.LW Ҳуқуқ асослари
- C.LW Бизнесни бошқаришни ҳуқуқий тартибга солиш
- B.TX Солиқ солиш асослари
- C.TX Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари

ACFP малака даражалари тизими

ACFP малакалари тўртта изчил даража бўйича туркумланган:

- А даражаси (бошланғич)
- В даражаси (базавий)
- С даражаси (профессионал)
- D даражаси (илғор)


Ўқишни билим ва кўникмаларингизга мувофиқ келадиган даражадан бошлаш тавсия этилади. А даражасидан бошлаш мажбурий талаб эмас. Мос келадиган даражани танлаш жорий малака ва профессионал тажрибани мустақил баҳолашга асосланган бўлиши керак.



С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари имтиҳонининг ACFP малака тизимидаги ўрни

С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари имтиҳони молия мутахассислари учун солиқларни босқичма-босқич ўрганишнинг профессионал поғонаси ҳисобланадигана қуйидагича топширилиши мумкин:

- ACCA ва ACFP халқаро «Молия ва бизнесни бошқариш» дипломи учун мажбурий имтиҳон сифатида;
- DiPNUz дипломини олиш учун ўтиши керак бўлган «Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг иккинчи поғонаси сифатида.



Ўқув юкламаси

Умумий ҳисобда «Солиқлар ва солиқ солиш» фани бўйича иккита имтиҳонга тайёргарлик учун камида 480 соат керак бўлади:

	Ўқув фаолияти тури	«Солиқлар ва солиқ солиш» фани бўйича академик соатлар сони		
		В.ТХ Солиқ солиш асослари тайёргарликнинг 1-босқичи	С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари тайёргарликнинг 2-босқичи	Жами
1	Маърузаларни тинглаш	60	60	120
2	Амалий машғулотлар	40	40	80
3	Мустақил иш	140	140	280
	Жами	240	240	480

Эътибор беринг! С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари 2-босқич имтиҳонига В.ТХ Солиқ солиш асослари 1-босқич имтиҳонини топширган ёки қуйидагиларга эга бўлган шахслар қўйилади:

- молия, ҳисоб ёки аудит бўйича олий маълумот тўғрисидаги диплом – ОТМ ўқув дастурлари АССАда аккредитациядан ўтказилганда, ёки
- CAP/CIPA сертификатлари, ёки
- аудитор сертификати, ёки
- солиқ маслаҳатчиси сертификати.

АССА аккредитацияси

В.ТХ Солиқ солиш асослари ва С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари имтиҳонлари дастури АССА томонидан аккредитацияланган. Бу қуйидагиларни англатади:

- у «Молия ва бизнесни бошқариш» халқаро дипломининг Солиқлар ва солиқ солиш (ТХ) имтиҳони дастурига камида 80% мувофиқ келади;
- бу имтиҳон АСФРнинг иккита имтиҳонини (С.ТХ ва В.ТХ) муваффақиятли топширганда АССА томонидан инобатга олинади.

Эътибор беринг! Бепул озод қилиш учун С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари имтиҳонини топширишдан олдин АССА сайтидаги «Молия ва бизнесни бошқариш» дипломи дастури учун рўйхатдан ўтиш лозим. буни амалга оширмасангиз, озод қилиш пулли бўлади.

II. Дастурнинг мақсади

С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари («Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг 2-даражаси) имтиҳонига тайёргарлик дастурининг мақсади номзодларда солиқ менежменти асослари, айрим солиқ тўловчилар ва операциялар турлари бўйича қўшилган қиймат ва фойдага солиқ солиш кўникмалари, акциз тўланадиган товарлар, ер қаъридан фойдаланувчилар, солиқ тўловчиларнинг айрим тоифалари ва трансферт нархини шакллантириш бўйича тушунчаларни шакллантиришдан иборат.

Дастурни ўзлаштириш номзодларга қуйидаги имкониятларни беради:

- молия мутахассисининг ахлоқий меъёрлари ва профессионал хулқидан келиб чиққан ҳолда компанияда солиқларни бошқаришни тушунтириш;
- алоҳида ҳолларда қўшилган қиймат солиғини тартибга солувчи нормаларни тушунтириш ва қўллаш;
- алоҳида солиқ тўловчиларда ва алоҳида операциялар бўйича фойда солиғини тартибга солувчи нормаларни тушунтириш ва қўллаш;
- акциз солиғини тушунтириш ва ҳисоблаб чиқариш;
- ер қаъридан фойдаланувчилар учун солиқларни тартибга солувчи нормаларни тушунтириш ва қўллаш;
- трансферт нархни белгилашда солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятларини тушунтириш;
- чет эл капитали иштирокидаги компанияларга, махсус иқтисодий зоналар иштирокчиларига, адвокатларга ва адвокатлик тузилмаларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятларини тартибга солувчи нормаларни тушунтириш ва қўллаш.

III. Дастур бўлимлари ва мавзулари

«Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари» имтиҳони дастури қуйидаги бўлим ва мавзуларни ўз ичига олади:

1-бўлим. Қўшилган қиймат солиғини ундиришнинг ўзига хос жиҳатлари

- 1.1. Алоҳида ҳолларда ҚҚС бўйича солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари
- 1.2. Ноль даражали ставка бўйича ҚҚС солинадиган айланмалар
- 1.3. Айрим ҳолларда ҚҚСни ҳисобга олишнинг ўзига хос хусусиятлари
- 1.4. ҚҚСни қайтаришнинг тезлаштирилган тартиби

2-бўлим. Фойда солиғини ундиришнинг ўзига хос жиҳатлари

- 2.1. Алоҳида вазиятларда жами даромадни аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари
- 2.2. Алоҳида вазиятларда фойда солиғини ҳисоб-китоб қилишда харажатларни аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари
- 2.3. Алоҳида тўловчилар ва операциялар бўйича солиқ базасини аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари
- 2.4. Алоҳида вазиятларда зарарларни ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари
- 2.5. Ўзбекистондан ташқаридаги манбалардан олинган даромадларга солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари
- 2.6. Фаолиятни доимий муассасалар орқали амалга оширувчи норезидентларнинг даромадларига солиқ солиш

3-бўлим. Акциз солиғи

- 3.1. Акциз солиғи тўловчилар
- 3.2. Акциз солиғини ҳисоб-китоб қилиш
- 3.3. Ҳисоботларни тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

4-бўлим. Ер қаъридан фойдаланувчилар учун солиқлар

- 4.1. Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ
- 4.2. Фойдали қазилмаларни қазиб олганлик учун махсус рента солиғи

5-бўлим. Трансферт нархни белгилашда солиқ солиш

- 5.1. Трансферт нархни белгилаш тўғрисидаги умумий қоидалар
- 5.2. Ўзаро боғлиқ шахслар ўртасидаги назорат қилинадиган битимлар
- 5.3. Трансферт нархни белгилашда солиқ назоратини ўтказиш
- 5.4. Солиқ солиш мақсадида нархни белгилаш тўғрисидаги битим

6-бўлим. Солиқ тўловчиларнинг айрим тоифаларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

- 6.1. Чет эл капитали иштирокидаги компанияларга солиқ солиш
- 6.2. Махсус иқтисодий зоналар иштирокчиларига солиқ солиш
- 6.3. Адвокатлар ҳайъатлари, адвокатлик фирмалари, адвокатлик бюrolари ва адвокатларга солиқ солиш

7-бўлим. Компания солиқларини бошқариш

- 7.1. Солиқ менежменти асослари
- 7.2. Корпоратив солиқларни режалаштириш
- 7.3. Компанияда солиқларни бюджетлаштириш
- 7.4. Солиқ комплаенси асослари
- ~~7.5. Бухгалтернинг солиқ солишга нисбатан ахлоқи ва профессионал ҳулқи~~

IV. Имтиҳон формати

С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари («Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг 2-даражаси) фани бўйича имтиҳон компьютерда ўтказилади. Имтиҳон давомийлиги – 3 соат. Имтиҳонда талабгорлар Ўзбекистон қонунчилиги маълумотлар базасидан фойдаланишга ҳақли.

Имтиҳон икки бўлимдан иборат. А бўлими тест форматидаги 15 та саволни ўз ичига олади, уларнинг ҳар бири бир хил вазнга эга (2 балл). А бўлимининг умумий вазни 30 баллни ташкил этади.

Имтиҳоннинг В бўлими ҳар бири 10 баллдан иборат 4 та сценарийни, шунингдек, ҳар бири 15 баллдан иборат 2 та сценарийни ўз ичига олади. В бўлимининг умумий вазни 70 баллни ташкил этади.

Ҳар бири 15 баллдан иборат иккита сценарийда жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғи ва фойда солиғи масалалари эътибор марказида бўлади. А бўлимининг саволлари ва В бўлимининг қолган саволлари ўқув режасидаги бошқа ҳар қандай фанларга тааллуқли бўлиши мумкин.

Номзод олиши мумкин бўлган энг юқори балл – 100 балл. Ўтиш балли – 100 баллдан 60 балл.

Эътибор беринг! Одатда, жорий йилги тестлар ва имтиҳон топшириқлари имтиҳон йилидан олдинги йилнинг 1 декабригача расман кучга кирган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга асосланади. Масалан, 2025 йил ноябрдаги имтиҳонлар 2025 йил 1 январгача қабул қилинган ҳужжатларга асосланади. Бу қоидадан истисно ҳолатларда қўлланиладиган ҳуқуқий ҳужжат таҳрири алоҳида кўрсатилади.

V. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари

1-бўлим. Қўшилган қиймат солиғини (ҚҚС) ундиришнинг ўзига хос жиҳатлари

1.1-мавзу. Алоҳида ҳолларда ҚҚС бўйича солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) корхонани мулкӣ мажмуа сифатида реализация қилишда, муддатли битимлар бўйича ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда ҚҚС бўйича солиқ базасини ҳисоблаб чиқариш;
- В) биргаликдаги фаолият, ишончли бошқарув ва концессия шартномаси доирасидаги операцияларга солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятларини тушунтириш;
- С) қайта ташкил этишда солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятларини тушунтириш.

1.2-мавзу. Ноль даражали ставка бўйича ҚҚС солинадиган айланмалар

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) экспорт ва унга тенглаштирилган операцияларни фарқлаш, товарлар экспортини тасдиқловчи ҳужжатларни санаб ўтиш;
- В) Ўзбекистон божхона ҳудудида товарларни қайта ишлаш хизматлари бўйича ноль даражали ставкани қўллаш;
- С) халқаро ташишлар билан боғлиқ хизматларни фарқлаш;
- Д) хорижий дипломатик ваколатхоналар томонидан товарларни (хизматларни) сотиб олишда, шунингдек, Маҳсулот тақсимотига оид битим бўйича фаолият доирасида ноль даражали ставкани тўғри қўллаш.

1.3-мавзу. Алоҳида ҳолларда ҚҚСни ҳисобга олишнинг ўзига хос хусусиятлари

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) экспорт қилишда ҳисобга олиш тартибини тушунтириш.

1.4-мавзу. ҚҚСни қайтаришнинг тезлаштирилган тартиби

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) ҚҚСни қоплашнинг тезлаштирилган тартибини тушунтириш.

2-бўлим. Фойда солиғини ундиришнинг ўзига хос жиҳатлари

2.1-мавзу. Алоҳида вазиятларда жами даромадни аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) талаб қилиш ҳуқуқидан ўзганинг фойдасига воз кечиш шартномаси бўйича хизмат кўрсатувчи ҳўжаликлардан олинадиган даромадни тан олишнинг ўзига хос хусусиятларини тушунтириш.

2.2-мавзу. Алоҳида вазиятларда фойда солиғини ҳисоб-китоб қилишда харажатларни аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

А) кафолатли таъмирлаш ва кафолатли хизмат кўрсатиш бўйича келгуси харажатлар учун резервни шакллантириш харажатларининг солиқ ҳисобининг ўзига хос хусусиятларини тушуниш.

2.3-мавзу. Айрим тўловчилар ва операциялар бўйича солиқ базасини аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

А) нотижорат ташкилотларига, ишончли бошқарувда, оддий ширкат (биргаликдаги фаолият тўғрисидаги шартнома) доирасида, қимматли қоғозлар бозорининг профессионал иштирокчиларига, солиқ тўловчиларнинг консолидациялашган гурӯҳи иштирокчиларига, назорат қилинадиган чет эл компанияларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятларини тушуниш;

В) корхонани мулкӣ мажмуа сифатида сотиб олишда, қимматли қоғозлар, муддатли битимларнинг молиявий воситалари билан операциялар, хеджирлаш бўйича захираларни баҳолаш усулини ўзгартириш натижасига солиқ солиш тартибини тушунтириш;

2.4-мавзу. Айрим вазиятларда зарарларни ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

А) қайта ташкил этишда ва солиқ тўловчиларнинг консолидациялашган гурӯҳи бўйича ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда зарарларни келгусига ўтказиш қоидаларини тушуниш;

В) юридик шахснинг устав фондидаги иштирок этиш улушини реализация қилишдан ёки бошқача тарзда чиқиб кетишдан, корхонани мулкӣ мажмуа сифатида реализация қилишдан, ишончли бошқарув шартномаси бўйича, оддий ширкат шартномасида (биргаликдаги фаолият тўғрисидаги шартномада) иштирок этишдан, хизмат кўрсатувчи хўжаликлардан, муомалада бўлмаган қимматли қоғозлар ва муддатли битимларнинг муомалада бўлмаган молиявий воситалари билан операциялар бўйича кўрилган зарарларни ўтказишнинг ўзига хос хусусиятларини фарқлаш.

2.5-мавзу. Ўзбекистондан ташқаридаги манбалардан олинган даромадларга солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

А) товарлар (хизматлар) экспортидан олинган даромадлар қисмида солиқнинг ноль ставкасини қўллаш;

В) Ўзбекистондан ташқаридаги манбалардан олинган даромадлардан тўланган солиқни ҳисобга олиш тартибини қўллаш.

2.6-мавзу. Фаолиятни доимий муассасалар орқали амалга оширувчи норезидентларнинг даромадларига солиқ солиш

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

А) солиқ солинадиган даромад ва чегириб ташланадиган харажатларни аниқлаш;

В) солиқни тўлаш, ҳисоботларни тузиш ва топшириш, солиқ агенти томонидан ушлаб қолинган солиқни ҳисобга олиш қоидаларини тушунтириш.

3-бўлим. Акциз солиғи

3.1-мавзу. Акциз солиғи тўловчилар

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўидагиларни бажара олишлари керак:

А) солиқ тўловчиларни аниқлаш.

3.2-мавзу. Акциз солиғини ҳисоб-китоб қилиш

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўидагиларни бажара олишлари керак:

А) солиқ солиш объектини идентификациялаш, солиқ солиш объекти бўлмаган операцияларни фарқлаш, акциз тўланадиган товарлар экспортини тасдиқловчи ҳужжатларни санаб ўтиш, солиқ солинадиган операциялар амалга оширилган санани аниқлаш;

В) акциз тўланадиган товарларни меҳнатга ҳақ тўлаш, дивидендлар ҳисобига, бепул ёки бошқа товарларга айирбошлаш ҳисобига беришда, қайта ишлашга берилган хом ашёдан акциз тўланадиган товарларни ишлаб чиқаришда, шу жумладан импорт қилишда, бензин, дизель ёқилғиси ва газ бўйича акциз тўланадиган товарларни ишлаб чиқаришда ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда солиқ базасини аниқлаш, солиқ базасига тузатишлар киритиш ҳолларини фарқлаш;

С) қатъий белгиланган, адвалор ва аралаш солиқ ставкаларини фарқлаш ва қўллаш, солиқни ҳисоблаб чиқариш.

3.3-мавзу. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўидагиларни бажара олишлари керак:

А) солиқни тўлаш, ҳисобот тузиш ва топшириш.

4-бўлим. Ер қаъридан фойдаланувчилар учун солиқлар

4.1-мавзу. Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўидагиларни бажара олишлари керак:

А) солиқ тўловчиларни аниқлаш;

В) солиқ солиш объектини идентификациялаш, ўртача тортилган реализация қилиш нархи нима эканлигини тушунтириш, солиқ солиш объекти бўлмаган фойдали қазилмаларни қазиб олишни фарқлаш;

С) қазиб олинган фойдали қазилмалардан ўз эҳтиёжлари учун фойдаланилганда, солиқ (ҳисобот) даврида реализация қилиш мавжуд бўлмаганда, қазиб олиш бошланганидан буён реализация қилиш мавжуд бўлмаганда, қазиб олинган табиий газ ва (ёки) нефть мустақил равишда ёхуд қайтариш шарти билан қайта ишланганда, айрим турдаги металллар қазиб олинганда ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда солиқ базасини ҳисоблаб чиқариш;

Д) солиқни ҳисоблаб чиқариш, тўлаш, ҳисобот тузиш ва топшириш.

4.2-мавзу. Фойдали қазилмаларни қазиб олганлик учун махсус рента солиғи

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўидагиларни бажара олишлари керак:

А) солиқ тўловчиларни аниқлаш;

В) солиқ солиш объектини аниқлаш, рента даромади, рента зарари нима эканлигини тушунтириш ва уни сўндириш тартиби, бошланғич харажатлар, капитал ва операцион харажатларни фарқлаш, рента даромадини аниқлашда ҳисобга олинмайдиган даромадлар ва харажатларни таниш;

С) хорижий инвестициялар иштирокидаги қазиб олувчи корхоналар учун қазиб олиш фаолиятини бошлашда (рухсатнома олишда), биринчи солиқ даври якунлари бўйича рента зарарини олишда ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда солиқ базасини белгилаш;

Д) солиқни минимал ва оширилган ставкаларни ҳисобга олган ҳолда ҳисоблаб чиқариш;

Е) солиқни тўлаш, ҳисобот тузиш ва топшириш.

5-бўлим. Трансферт нархни белгилашда солиқ солиш

5.1-мавзу. Трансферт нархни белгилаш тўғрисидаги умумий қоидалар

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

А) трансферт нарх, трансферт нархни белгилаш, назорат қилинадиган битимлар тушунчаларини изоҳлаш, трансферт нархни белгилашда назорат доирасида ДСҚ томонидан текшириладиган солиқларни санаб ўтиш;

В) трансферт нархни белгилаш, шунингдек тузатиш киритиш натижалари бўйича солиқларни тўлаш натижасида солиқ базасига ва (ёки) тегишли солиқлар суммасига тузатиш киритиш тартибини таърифлаш;

С) нархларни бозор нархлари деб тан олиш тартибини таърифлаш, шу жумладан нархларни тартибга солишда.

Мавзу 5.2. Ўзаро боғлиқ шахслар ўртасидаги назорат қилинадиган битимлар

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

А) битимни назорат қилинадиган битим деб эътироф этиш ҳолатларини фарқлаш, қандай ташқи савдо битимлари назорат қилинадиган битимлар деб эътироф этилишини, бундай битимлар тузилганлиги тўғрисида солиқ органларини хабардор қилиш тартибини тушунтириш;

В) қайси шартларда битимлар таққосланадиган деб тан олинишини тушунтириш, битимлар шартларининг таққосланишини таҳлил қилиш, битимлар шартларининг таққосланишини таҳлил қилиш учун ахборотдан фойдаланиш.

5.3-мавзу. Трансферт нархни белгилашда солиқ назоратини ўтказиш

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қуйидагиларни бажара олишлари керак:

А) трансферт нархни белгилашда солиқ назоратига қандай тайёргарлик кўрилиши, солиқ органларига қандай ҳужжатлар тақдим этилишини тушунтириш;

В) трансферт нархни белгилашда солиқ назорати усуллари таснифлаш: таққосланадиган бозор нархлари, кейинчалик реализация қилиш нархлари, харажатлар, таққосланадиган рентабеллик, фойдани тақсимлаш, шунингдек назорат қилинадиган битимларда солиқ солиш мақсадида даромадларни аниқлашда фойдаланиладиган рентабеллик кўрсаткичлари;

С) ўтказилган текширув натижаларини расмийлаштириш тартибини таърифлаш, трансферт нархни белгилашда солиқларни тўламаганлик ёки тўлиқ тўламаганлик учун қандай жавобгарлик назарда тутилганлигини тушунтириш.

5.4-мавзу. Солиқ солиш мақсадида нархни белгилаш тўғрисидаги битим

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) нархни белгилаш тўғрисидаги битимнинг предмети ва уни тузиш мақсадини тушуниш, унинг тарафлари кимлар ва у қанча муддатга тузилишини тушунтириш;
- В) битимни тузиш, бекор қилиш, шунингдек унинг бажарилишини текшириш тартибини тушунтириш.

6-бўлим. Солиқ тўловчиларнинг айрим тоифаларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари**6.1-мавзу. Чет эл капитали иштирокидаги компанияларга солиқ солиш**

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) чет эл капитали иштирокидаги компанияларга солиқ солиш шартларини тушунтириш;
- В) солиқ имтиёзларини қўллаш шартларини, имтиёзлар берилган муддат тугаганидан кейин фаолият бир йилдан олдин тугатилганда, имтиёзларни қўллаш шартларига номувофиқлик аниқланганда имтиёзларни қўллаш тартибини тушунтириш.

6.2-мавзу. Махсус иқтисодий зоналар иштирокчиларига солиқ солиш

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) солиқ солиш шартларини тушунтириш;
- В) солиқ имтиёзларининг амал қилиш муддатини ҳисоблаш тартибини, махсус иқтисодий зона иштирокчиси мақомидан маҳрум қилинганда имтиёзларни қўллаш тартибини, имтиёзларнинг амал қилиш муддатини узайтириш шартларини тушунтириш.

6.3-мавзу. Адвокатлар ҳайъатлари, адвокатлик фирмалари, адвокатлик бюrolари ва адвокатларга солиқ солиш

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) адвокатлар ҳайъатлари, адвокатлик фирмалари, адвокатлик бюrolари ва адвокатларнинг ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ фаолиятини ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ бўлмаган фаолиятдан фарқлаш;
- В) адвокатнинг даромади (гонорар) бўйича солиқ базасини аниқлаш ва солиқни ҳисоблаб чиқариш.

7-бўлим. Компания солиқларини бошқариш**7.1-мавзу. Солиқ менежменти асослари**

Мавзунини ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- А) корхонада солиқ юкини ҳисоблаб чиқариш;
- В) солиқларни корпоратив бошқаришнинг мақсад ва вазифаларини тушунтириш;
- С) солиқларни бошқариш ва солиқ тўлашдан бўйин товлаш ўртасидаги фарқларни аниқлаш;
- Д) компания молиясини бошқариш тизимида солиқ менежментининг ўрнини тушунтириш.

7.2-мавзу. Корпоратив солиқларни режалаштириш

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- A) солиқларни режалаштиришнинг моҳиятини тушунтириш;
- B) солиқ тўловчининг ҳалоллиги тушунчаси ва унинг ҳуқуқни суиистеъмол қилиш билан боғлиқлигини тушуниш;
- C) солиқ нафи тушунчасини тушунтириш, асосланган ва асосланмаган солиқ имтиёзлари ўртасидаги фарқни аниқлаш, солиқ ажратмаларини мақбуллаштиришнинг аҳамияти ва унинг солиқ солишдан бўйин товлаш ва уни четлаб ўтишдан фарқини тушунтириш;
- D) PCRT солиқларни режалаштириш стандартларини таърифлаш.

7.3-мавзу. Компанияда солиқларни бюджетлаштириш

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- A) корхонанинг солиқ бюджетини тушунтириш ва тузиш;
- B) бюджетлаштириш тамойилларини қўллаш;
- C) бюджетлаштириш босқичларини санаб ўтиш ва таърифлаш;
- D) солиқ тўловлари календарини тузиш.

7.4-мавзу. Солиқ комплаенси асослари

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- A) солиқ комплаенси тушунчаси ва шакллариини тушунтириш;
- B) солиқ хавфининг асосий омилларини аниқлаш ва тушунтириш;
- C) компания фаолиятида асосий потенциал солиқ хавфларини аниқлаш;
- D) компаниянинг асосий солиқ хавфларини минималлаштириш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқишни билиш.

7.5-мавзу. Солиқ солишга нисбатан бухгалтернинг ахлоқи ва профессионал ҳуққи

Мавзуни ўзлаштиргандан сўнг талабалар қўйидагиларни бажара олишлари керак:

- A) «Солиқ солишга нисбатан профессионал ҳуққ» (PCRT) ҳужжатининг асосий талабларини таърифлаш;
- B) солиқ солиш жараёнида профессионал бухгалтернинг ахлоқий ҳуққининг асосий тамойилларини тушунтириш;
- C) пул «ювиш»га қарши курашиш бўйича қонунчилик талабларини таърифлаш ва уларга риоя қилиш.

VI. Баҳоланаётган билим ва кўникмалар мавзулари бўйича ҳуқуқий ҳужжатлар

«Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари» («Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг 2-даражаси) имтиҳонига тайёргарлик кўришда қуйидаги ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдаланиш тавсия этилади:

- Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси, бундан VII ва XIX бўлимлар ҳамда 71-боб мустасно;
- Солиқ солиш соҳасида профессионал ҳул (Professional Conduct in Relation to Taxation (PCRT)).